



Topshiriqlar:


1. Ushbu xaritadan tarkibida efir moylari saqlaydigan o'simliklarni qizil rangda, terpenlar saqlaydigan o'simliklarning tarqalgan hududlarini esa ko'k rangda bo'yang. Qarag'ay, lavr, rozmarin kabi o'simliklarni o'zining geografik tarqalishiga ko'ra tahlil qiling. **(Botanika va geografiya fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**



2. O'simliklarda efir moylari qanday ajraladi, bunda qanday fizik jarayonlar sodir bo'ladi? Fikringizni misollar yordamida tushuntiring. **(Botanika va fizika fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**



3. Quyida berilgan o'simliklarning tarkibidagi efir moylari va terpenlarning tarkibi va tibbiyotdagi ahamiyatini tushuntirib bering. **(Botanika, kimyo va tibbiyot fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**



4. Ajratuvchi to'qimalar yordamida o'simliklarning ekologik moslashuvlarini tahlil qiling. Masalan, o'simliklarning nektar ishlab chiqarishi va ularning ekosistemada o'rni haqida ma'lumotlar tayyorlang. **(Botanika va ekologiya fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**